

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 145 (1744), 2026-yil 18-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

OZARBAYJON BILAN AMALIY HAMKORLIKNI
YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborovni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlarini, avvalo, savdo-iqtisodiy sohada yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘tgan yilda tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshdi, joriy yilning o‘tgan davrida esa o‘shish qariyb 40 foizni tashkil etdi.

Qurilish, energetika, geologiya, logistika, moliya, yoqilg‘i, to‘qimachilik, turizm va boshqa tarmoqlarda, shu jumladan, qo‘shma Investitsiya kompaniyasi ishtirokida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlarning iqtisodiy kun tartibini puxta tayyorlash muhimligi ta’kidlandi.

Shu ma’noda, bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlarining yakunlari yuksak baholandi. Shuningdek, ikki mamlakat hududlari forumi natijador o‘tishini ta’minlash zarurligi qayd etildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

YOQILG‘I-ENERGETIKA TARMOG‘IDA
HAR BIR MUROJAATGA MANZILLI
CHORALAR KO‘RISH ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyevga yoqilg‘i-energetika sohasida fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularda ko‘tarilgan muammolarni kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida bartaraf etish yuzasidan axborot berildi.

Aholini elektr energiyasi va gaz bilan barqaror ta’minlashda fuqarolar murojaatlarini tahlil qilish, ular asosida joylardagi muammolarni aniqlab, manzilli choralar ko‘rish muhim ahamiyatga ega.

2026-yilning birinchi yarmida yoqilg‘i-energetika sohasiga oid 39 ming 220 ta murojaat kelib tushgan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13 ming 820 ta yoki 26,1 foiz kam.

Ularining 50 foizi tabiiy va suyultirilgan gaz, 38,3 foizi elektr ta’minoti bilan bog‘liq.

Murojaatlarda asosan suyultirilgan gaz ballonlarini to‘ldirish, elektr ta’minotidagi uzilishlar, elektr tarmoqlarini qurish va ta’irlash hamda tabiiy gaz bosimi bilan bog‘liq masalalar ko‘tarilgan.

Murojaatlarning umumiy soni kamayganiga qaramay, har bir murojaatni alohida holat sifatida emas, balki muayyan hudud, tarmoq yoki xizmatdagi muammoni ko‘rsatuvchi muhim signal sifatida o‘rganish zarurligi ta’kidlandi.

Kuz-qish mavsumi oldidan takroriy murojaatlar kelib tushayotgan mahalla va obyektlarni xatlovdan o‘tkazish, elektr va gaz tarmoqlarining texnik holatini o‘rganish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha hududlar kesimida manzilli rejalar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Ayniqsa, elektr ta’minotida uzilishlar ko‘p kuzatilayotgan hududlarda tarmoq va transformatorlarni ta’irlash, avariya brigadalarining shayligini oshirish, tabiiy gaz bosimi bilan bog‘liq muammolar mavjud joylarda ta’minot barqarorligini ta’minlash muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, suyultirilgan gaz ballonlarini to‘ldirish va aholiga yetkazib berish grafiklariga qat’iy rioya qilish, ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlarda qo‘shimcha xazira va imkoniyatlarni safarbar etish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga murojaatlarda ko‘tarilgan tizimli muammolarni kuz-qish mavsumi boshlanguniga qadar hal etish, bunda mahalliy hokimliklar, “mahalla yettilligi” hamda kommunal xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan birgalikda tizimli ish olib borish zarurligiga urg‘u berildi.

Mavsumga tayyorgarlik ishlarini muddatida va sifatli yakunlash, aholi hamda ijtimoiy soha obyektlariga tabiiy va suyultirilgan gaz, shuningdek, boshqa yoqilg‘i resurslarini barqaror yetkazib berish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

Kubanichbek OMURALIYEV:
“O‘ZBEKISTON KENG KO‘LAMLI,
TIZIMLI TRANSFORMATSIYANING
MUVAFFAQIYATLI
NAMUNASINI YARATDI”

Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi
“Dunyo” axborot agentligi muxbiri
savollariga javob berdi



— Joriy yilda yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganiga 10-yil to‘ladi. Siz ushbu islohotlarni qanday baholaysiz va mamlakatda ro‘y bergan qaysi o‘zgarishlar eng ahamiyatli hisoblanadi?

— So‘nggi o‘n yil mobaynida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida davlat va jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ularning natijalari bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush darajasi yuksalishi, xalqaro nufuzi mustahkamlanishi va davlat boshqaruvi tizimi takomillashganida o‘z ifodasini topmoqda.

Fikrimcha, ushbu davrning eng muhim natijalari bir qator muhim jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchiidan, mamlakatning ochiqligi. O‘zbekiston tashqi siyosatni sezilarli darajada faollashtirib, qo‘shni davlatlar va xalqaro hamkorlar bilan munosabatlarni mustahkamladi. Bu esa davlatning sarmoyaviy jozibadorligi va jahon arenasidagi obro‘sin oshirishga imkon berdi.

▶ Davomi 2-betda

Dastlab nufuzli xorijiy muzey va ko‘rgazma maydonlarida O‘zbekistonning arxeologik va ilmiy merosi, shuningdek, amaliy san’at asarlarini namoyish etish bo‘yicha rejalar ko‘rib chiqildi.

Jumladan, 2026-yil sentyabr oyida Dohadagi Islom san’ati muzeyida “Uzbekistan: Heritage in Motion” ko‘rgazmasini, noyabr oyida esa Milandagi Prada fondida O‘zbekistonning noyob eksponatlari ishtirokida “Global Antiquity” xalqaro arxeologiya ko‘rgazmasini tashkil etish rejalashtirilgan. 2027-yilda Venetsiyadagi Palazzo Grimani va Yaponiyaning Nara milliy muzeyida yurtimizning bronza davridan ilk o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixini aks ettiruvchi 200 dan ziyod arxeologik topilmalar namoyish etiladi. Milandagi Palazzo Realeda oltin kashtachilik, so‘zana, ikat, zargarlik buyumlari va amaliy san’at asarlaridan iborat 150 dan ortiq eksponat taqdim etiladi.

Florensiyada Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ilmiy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazma o‘tkazish, shuningdek, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlardagi yetakchi madaniy muassasalar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish rejalari bayon qilindi.

Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Romanovlar saroyida O‘zbekiston davlat san’at muzeyi filialini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Bunda majmuaning tarixiy qiyofasi saqlab qolinib, 300 ga yaqin eksponatdan iborat doimiy ekspozitsiya shakllantirildi.

Muxtor Ashrafyiy uy-muzeyida binoning fasadi va tarixiy interyerlari restavratsiya qilinib, ekspozitsiya yangilanmoqda. Muzey zamonaviy muhandislik tizimlari, xavfsizlik va iqlim nazorati vositalari, multimedia uskunolari, shuningdek, ovoz yozish studiyasi bilan jihozlanadi.

Taqdimotda “Tamerlano” operasini jahonning nufuzli sahnalarida namoyish etish natijalari va kelgusi rejalar ko‘rib chiqildi.

Joriy yilda ushbu asar Dubay operasi, Venadagi “Muzikferayn”, Sankt-Peterburgdagi Mariinskiy teatri hamda Versal saroyi Qirolik operasi sahnalarida namoyish etildi. Stefan Poda sahnalashtirgan operada Georg Fridrix Gendel musiqasi Kirill Rixter talqinida, o‘zbek milliy cholg‘u asboblardan foydalanilgan holda ijro etildi. Loyihada O‘zbekiston Milliy simfonik orkestri, xor, xalq cholg‘ulari orkestri va taniqli solistlar ishtirok etdi.

2027-yil mart oyida “Tamerlano” operasini Nyu-Yorkdagi mashhur “Karnegi-xoll” konsert zali sahnasida namoyish etish rejalashtirilgan. Bu o‘zbek opera san’ati va milliy ijrochilik maktabining yuksak salohiyatini xorijiy auditoriyaga keng namoyish etish imkonini beradi.

Yirik konsertlar, festivallar, tanlov va ko‘rgazmalarni tashkil etishning yagona tizimini shakllantirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Madaniyat vazirligi huzuridagi “Xalqaro festivallar direksiyasi” davlat muassasasi negizida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi huzurida Madaniy loyihalar milliy operatorini tashkil etish taklif qilindi.

Milliy operator yirik xalqaro tadbirlarni tashkil etish va ularni xorijda targ‘ib qilish, taniqli ijrochilar ishtirokidagi konsertlarga buyurtmachi sifatida ish olib borish, shuningdek, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini tayyorlash uchun mas’ul bo‘ladi.

Joriy yil 8-iyun kuni Samarqanddagi Registon maydonida mashhur xonanda Jon Lejendning konserti o‘tkazildi. Avgust oyida Pekindagi Buyuk Xitoy devorida, sentyabr oyida esa Registon maydonida taniqli pianinchi Lang Langning konsertlarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘ZA

MADANIYAT VA SAN’AT
SOHASIDAGI USTUVOR
LOYIHALAR NATIJADORLIGIGA
E’TIBOR QARATILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-iyul kuni madaniyat va san’atni rivojlantirish, milliy merosimizni asrab-avaylash hamda xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilishga qaratilgan loyiha va tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.

Oktyabr oyida Toshkentdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida bastakor Maks Rixterning konserti bo‘lib o‘tadi.

Joriy yilda Venetsiya va Milan shaharlarida o‘tkazilayotgan yirik xalqaro madaniy tadbirlarda O‘zbekistonning ishtiroki natijalari ham taqdim etildi.

Venetsiyadagi 61-xalqaro san’at biyennalesida O‘zbekiston “The Aural Sea” loyihasi bilan milliy pavilyonda ishtirok etmoqda. Loyiha Orol dengizi va Qoraqalpog‘iston mavzusini xotira, afsona va hikoyalarga orqali ochib beradi. Pavilyonga hozirga qadar 60 mingdan ziyod kishi tashrif buyurgan. Loyihaga bag‘ishlangan materiallarning umumiy media qamrovi 145 milliondan oshgan.

Biyennale doirasida Palazzo Kavalli-Frankettida o‘zbekistonlik rassom Vyacheslav Axunovning “Instruments of the Mind” shaxsiy ko‘rgazmasi ham tashkil etildi. Unda rassomning 1970-yillardan bugungi kunga qadar yaratilgan 200 dan ortiq asari namoyish etilmoqda. Ko‘rgazmaga 30 dan ziyod mamlakatdan 12 mingdan ortiq kishi tashrif buyurgan.

“Milan Design Week 2026” doirasida tashkil etilgan “O‘rik gullaganda” milliy pavilyonida 12 nafar xalqaro dizayner hamda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istondan 12 nafar hunarmandning hamkorlikdagi ishlari namoyish qilindi. O‘zbekiston pavilyoni “Fuorisalone Award 2026” mukofoti hakamlar hay’atining alohida e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Uni 18 mingdan ziyod kishi ko‘rdi, loyihaning xalqaro axborot qamrovi 171 millionga yetdi.

Shuningdek, Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasining 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan tadbir va loyihalari muhokama qilindi.

11-13-sentabr kunlari Nukus shahrida Orol madaniyati sammiti o‘tkazildi. Madaniyat, ilmfan, me’morlik, dizayn va ekologiya sohalar vakillari Orolbo‘yini barqaror rivojlantirish masalalarini muhokama qiladi. 2027-yil yanvar oyida “Aral School” xalqaro dasturining Orol dengizi havzasi iqlimi va landshaftiga bag‘ishlangan yangi mavsumi boshlanadi.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri repertuarini yangilash doirasida Jakomo Puchchinining “Turandot” operasi va Pyotr Chaykovskiyning “Shelkunchik” baletini yangicha talqinda sahnalashtirish rejalari ko‘rib chiqildi. Loyihalarni amalga oshirishga yetakchi mahalliy va xorijiy rejissyorlar, dirijyorlar, xoreograflar va sahnalashtirish bo‘yicha mutaxassislarni jalb etish rejalashtirilgan.

2027-yilgi Buxoro biyennalesi doirasida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, tarixiy hududlar va jamoat makonlarini obodonlashtirish, shuningdek, ko‘rgazma maydonlarini tayyorlash rejalashtirilgan. Biyennalega 50 dan ziyod xorijiy rassom va dizayner hamda mamlakatimiz kreativ industriyalarining 300 dan ortiq vakili jalb etiladi.

Bundan tashqari, “Milan Design Week” va “Art Basel” tadbirlarida ishtirok etish, “Art for Tomorrow” xalqaro anjumanini o‘tkazish, Qatar muzeylari bilan hunarmandchilik va dizayn sohasida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, Buxoroda badiiy rezidensiya va xalqaro zargarlik maktabini tashkil etish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni puxta tayyorlash, restavratsiya ishlari sifatini qat’iy nazorat qilish, milliy mazmunni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish hamda xalqaro madaniy hamkorlikning amaliy natijadorligini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

YANGI O‘ZBEKISTON: DAVLAT VA JAMIYATNI
MODERNIZATSIYA QILISH SARI

O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar kechayotgani bilan ajralib turadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi mamlakatni modernizatsiya qilishning strategik rejalashtirish, iqtisodiyotni chuqur liberallashtirish, inklyuziv ijtimoiy siyosat hamda ochiq va pragmatik tashqi siyosat tamoyillarini uyg‘unlashtirgan yangi taraqqiyot yo‘lini belgilab berdi.

Davlat boshqaruvi tizimini keng ko‘lamda isloh qilish, davlat institutlari hisobdorligi va ochiqligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu tub o‘zgarishlarning institutsional asosini tashkil etdi. Inson manfaatlariga yo‘naltirilgan yondashuv islohotlarning bosh qadriyati

sifatida qaror topdi. Unga ko‘ra, fuqarolarning hayot sifatini yuksaltirish, inson huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini oliy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida himoya qilish davlat faoliyati samaradorligining asosiy mezonini etib belgilandi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan barcha muhim sohalarida boshlangan keng ko‘lamli o‘zgarishlar islohotlarning mantiqiy izchilligini belgilaydigan hamda ularni aniq va amalda o‘lchash mumkin bo‘lgan maqsadlarga erishishga yo‘naltiradigan, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi tamoyillar tizimiga asoslanadi.

Birinchiidan, O‘zbekistonning modernizatsiya modeli tizimli o‘zaro bog‘liqlik tamoyiliga tayanadi. Mamlakatdagi islohotlar izchil va bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi jarayon bo‘lib, har bir o‘zgarish turdosh sohalarida ijobiy samarani yanada kuchaytiradi.

▶ Davomi 3-betda

IMKONIYATLAR PLATFORMASI
yoxud taraqqiyotga intilayotgan jamoa

Mamlakatimizda tashabbuskor, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yuksak natijaga erishish yo‘lida barcha kuch-g‘ayratini safarbar eta oladigan bilimli, professional kadrlar tayyorlash jarayoni bugun qanday kechmoqda? Yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar samarasi nimalarda ko‘zga tashlanayotir? Yoshlarning yaqin hamkoriga aylangan “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori, yuridik fanlar doktori, professor Gulnoza ISMOILOVA bilan shubbatimizda shu kabi savollarga javob topishga harakat qildik.

▶ Davomi 5-betda

Boshlanishi 1-betda

Ikkinchidan, iqtisodiy islohotlar. Valyuta bozori erkinlashtirildi, investitsiya muhiti sezilarli darajada yaxshilandi, xususiyladibirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirildi. Natijada iqtisodiyot yanada barqarorlashib, diversifikatsiyalashdi.

Uchinchidan, ijtimoiy sohaning rivojlanishi. Zamonaviy maktablar, bolalar bog‘chalari, tibbiyot muassasalari, infratuzilma obyektlari qurilishiga katta mablag‘ yo‘naltirildi. Yoshlar, xotin-qizlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmogda.

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston va TDT o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Bu hamkorlikning qaysi jihatlarini eng muvaffaqiyatli deb hisoblaysiz va kelajakda qanday qo‘shma loyihalar ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin?

— O‘zbekiston 2019-yilda TDTning to‘laqonli a‘zosiga aylandi, 2022–2023-yillarda esa tashkilotga ilk bor raislik qildi. Ushbu davr mobaynida O‘zbekiston raislik vazifasini samarali bajarib, TDTning yanada institutsional rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

O‘zbekiston tashkilot tarixida birinchi marta ustuvor yo‘nalishlar va tadbirlar majmuini o‘z ichiga olgan Raislik konsepsiyasini ishlab chiqdi. Mazkur hujjat a‘zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga va tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qator yangi tashabbuslarni mujassam etdi.

Konsepsiya TDTga a‘zo barcha davlatlarga taqdim etildi va yuqori baholandi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tomonidan asos solingan Raislik konsepsiyasini ishlab chiqish amaliyoti tashkilotning yangi an‘anasiga aylandi.

O‘zbekistonning TDT bilan hamkorligini mamlakat tashqi siyosatining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholash mumkin. Siyosiy muloqot kuchayishi, savdo-iqtisodiy aloqalar o‘sishi, O‘rta yo‘lak bo‘ylab transport o‘zaro bog‘liqligi rivojlanishi hamda madaniy-gumanitar almashinuv kengayishi eng muvaffaqiyatli natijalar bo‘ldi. Bugungi kunda TDT transport, energetika, raqamlashtirish va “yashil” iqtisodiyotga alohida e’tibor qaratmogda.

TDT mintaqasining iqtisodiy salohiyati tobora yaqqol namoyon bo‘lmogda. 2025-yilga kelib TDTga a‘zo va kuzatuvchi davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti 2,4 trillion AQSH dollaridan oshadi, umumiy savdo hajmi esa 1,27 trillion dollarga yetdi. O‘rtacha 6,86 foizli iqtisodiy o‘sinh sur‘ati bilan mintaqamiz 3,2 foizli jahon prognozidan ikki barobardan yuqori natija ko‘rsatib, barqaror va ishonchli rivojlanmogda.



O‘zbekiston TDT doirasida nafaqat ishtirokchi, balki amaliy loyihalar tashabbuskori sifatida o‘zini ko‘rsatayotgani muhim



ahamiyat kasb etmogda. Bu logistika, savdoni soddalashtirish, raqamli iqtisodiyot, yoshlar va ta’lim dasturlariga taalluqlidir.

— O‘zbekistondagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ochiq tashqi siyosatni shakllantirish bo‘ldi. Sizingcha, bu o‘zgarishlar xalqaro hamjamiyat ishonchini mustahkamlashga qay darajada hissa qo‘shmogda?

— Bu o‘zgarishlar xalqaro hamjamiyatning O‘zbekistonga ishonchini sezilarli darajada mustahkamladi. Ochiqtashqisiyosatmamlakata avvalgi yakkalanib qolish holatidan chiqish, qo‘shnilar, xalqaro tashkilotlar va dunyoning yetakchi hamkorlari bilan konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish imkonini berdi.

Eng muhimi, O‘zbekiston kelajagi porloq, ochiq va mas’uliyatli hamkor sifatida qabul qilina boshlandi. Bu siyosiy aloqalar o‘shida, iqtisodiy hamkorlik kengayishida, xorijiy investorlar qiziqishi ortishida, shuningdek, BMT, YXHT, TDT, SHHT, Yevropa Ittifoqi va boshqa tuzilmalar bilan o‘zaro hamkorlik faollashuvida namoyon bo‘ldi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarning strategik sheriklik darajasiga olib chiqilgani, ayniqsa, muhim yutuq bo‘ldi. Yaxshi qo‘shniçilik siyosati, chegara, transport va suv-energetika masalalari hal etilishi mintaqada yangi ishonç muhitini vujudga keltirdi. O'zbekiston mintaqaviy muloqot tashabbuskorlaridan biriga va muhim xalqaro masalalarni muhokama qiladigan maydonga aylandi.

Bundan tashqari, ichki islohotlar — iqtisodiyotni erkinlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, sud-huquq sohasidagi o‘zgarishlar, davlat organlari ochiqligini oshirish mamlakatning xalqaro obro‘sig a ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xalqaro hamjamiyat nafaqat tashqi siyosiy bayonotlarni, balki davlat ichidagi haqiqiy o‘zgarishlarni ham yuksak baholadi.

— Bugungi kunda O‘zbekiston barqaror

balki turkiy davlatlarning intellektual, texnologik va ilmiy salohiyatini birlashtirishni ham taqozo etmogda. Avvalo, “yashil” iqtisodiyot sohasida katta istiqbollar ochilmogda. Bular quyosh va shamol energetikasi sohasidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirish, energiya tejamlkor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish va ekologik toza transportni rivojlantirishdan iborat.

Mazkur yo‘nalishda mamlakatlarimiz tomonidan strategik ahamiyatga ega qo‘shma loyihalar allaqachon hayotga tatbiq etilmogda. Xususan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston birgalikda Qirg‘iziston hududida Qambarota-1 GES qurilishi loyihasini amalga oshiryatga ega?

Ikkinchi muhim yo‘nalish — transport-logistika sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirishdir. Transkaspoy yo‘nalishi, temir yo‘l va avtomobil yo‘laklari, portlar hamda yangi bozorlarga chiqish bilan bog‘liq loyihalar nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun strategik ahamiyat kasb etib, mintaqani Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim bo‘g‘inga aylantirmogda.

Uchinchi muhim tashabbus — Afg‘oniston borasida tinchlik, barqarorlik va gumanitar hamkorlikni ilgari surishdir. O‘zbekiston Afg‘onistonnimintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish, infratuzilma, savdo va energetikani rivojlantirish tarafdori sifatida izchil pozitsiyani egallab kelmogda.

Bu butun Markaziy Osiyo xavfsizligi uchun muhimdir. Shu yo‘nalishda barcha turkiy davlatlar TDTning 2025-yil may oyida bo‘lib o‘tgan Budapesht sammiti doirasida Afg‘oniston bo‘yicha qo‘shma bayonotni qabul qilib, O‘zbekiston tashabbusi bilan hamjihat ekanini namoyon etdi.

Shuningdek, TDTga a‘zo davlatlarning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga, butun mintaq uchun strategik ahamiyatga ega masalalar yuzasidan konstruktiv hamkorlikni rivojlantirishga sodiqligining yaqqol tasdig‘i bo‘ldi.

Ekologiya va barqaror rivojlanish, jumladan, Orol muammosi, suvni tejash, iqlim o‘zgarishi va “yashil” iqtisodiyot sohasidagi tashabbuslar uzoq muddatli ahamiyatga egadir. Bu muammolarni milliy chegaralardan tashqariga chiqib, birgalikdagi mintaqaviy yechimlarni talab etadi.

— Ko‘plab xalqaro ekspertlar yangi O‘zbekiston islohotlari tajribasini keng mintaqadagi ulkan transformatsiyaning eng yorqin namunalaridan biri sifatida e’tirof etmogda. Sizingcha, bu tajribaning qaysi jihatlari boshqa davlatlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi?

— Yangi O‘zbekiston tajribasi, avvalo, islohotlarning bir vaqtning o‘zida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashqi siyosat sohalarida kompleks tarzda keçishi bilan ahamiyatlidir. Boshqa davlatlar uchun aynan shu yondashuv — ayrim o‘zgarishlar emas, balki

— So‘nggi o‘n yillikdagi islohotlar davomida O‘zbekiston qator xalqaro va mintaqaviy loyihalar tashabbuskoriga aylandi. Amalga oshirilgan tashabbuslarning qaysi biri Markaziy Osiyo va umuman, xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega?

— Eng muhim tashabbuslar sirasiga Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam Maslahat uchrashuvlarini kiritgan bo‘lardim. Aynan ushbu format mintaq mamlakatlariga xavfsizlik, savdo, transport, suv, energetika va ekologiya masalalarini ortiqcha tashqi ziddiyatlarsiz, mustaqil ravishda muhokama qilish imkonini berdi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — transport-logistika sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirishdir. Transkaspoy yo‘nalishi, temir yo‘l va avtomobil yo‘laklari, portlar hamda yangi bozorlarga chiqish bilan bog‘liq loyihalar nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun strategik ahamiyat kasb etib, mintaqani Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim bo‘g‘inga aylantirmogda.

Uchinchi muhim tashabbus — Afg‘oniston borasida tinchlik, barqarorlik va gumanitar hamkorlikni ilgari surishdir. O‘zbekiston Afg‘onistonnimintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish, infratuzilma, savdo va energetikani rivojlantirish tarafdori sifatida izchil pozitsiyani egallab kelmogda.

Bu butun Markaziy Osiyo xavfsizligi uchun muhimdir. Shu yo‘nalishda barcha turkiy davlatlar TDTning 2025-yil may oyida bo‘lib o‘tgan Budapesht sammiti doirasida Afg‘oniston bo‘yicha qo‘shma bayonotni qabul qilib, O‘zbekiston tashabbusi bilan hamjihat ekanini namoyon etdi.

Shuningdek, TDTga a‘zo davlatlarning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga, butun mintaq uchun strategik ahamiyatga ega masalalar yuzasidan konstruktiv hamkorlikni rivojlantirishga sodiqligining yaqqol tasdig‘i bo‘ldi.

Ekologiya va barqaror rivojlanish, jumladan, Orol muammosi, suvni tejash, iqlim o‘zgarishi va “yashil” iqtisodiyot sohasidagi tashabbuslar uzoq muddatli ahamiyatga egadir. Bu muammolarni milliy chegaralardan tashqariga chiqib, birgalikdagi mintaqaviy yechimlarni talab etadi.

— Ko‘plab xalqaro ekspertlar yangi O‘zbekiston islohotlari tajribasini keng mintaqadagi ulkan transformatsiyaning eng yorqin namunalaridan biri sifatida e’tirof etmogda. Sizingcha, bu tajribaning qaysi jihatlari boshqa davlatlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi?

— Yangi O‘zbekiston tajribasi, avvalo, islohotlarning bir vaqtning o‘zida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashqi siyosat sohalarida kompleks tarzda keçishi bilan ahamiyatlidir. Boshqa davlatlar uchun aynan shu yondashuv — ayrim o‘zgarishlar emas, balki

rivojlanish modelining tizimli transformatsiya jiddiy ahamiyat kasb etadi.

“Davlat — inson uchun” tamoyili alohida qiziqish uyg‘otadi. Islohotlar aholi turmush sifatini oshirish, ta’lim, tibbiyot, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlar, xotin-qizlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Bunday insonparvar yondashuv ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Davlat boshqaruvi raqamlashtirilishi va uning shaffofligini oshirish ham muhimdir. Xizmatlarni elektron shaklga o‘tkazish, byurokratiyani qisqartirish, aholi bilan qayta aloqa mexanizmlarini rivojlantirish yanada samarali va zamonaviy boshqaruv tizimini yaratadi.

O‘zbekistonning islohotlarni barqarorlikni saqlagan holda uyg‘unlashtira olish qobiliyati alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu keng ko‘lamli o‘zgarishlarni tadjiriy, izchil va milliy o‘ziga xosliklarni inobaga olgan holda amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, yangi O‘zbekiston tajribasi boshqa davlatlar uchun siyosiy iroda, ochiqlik, ijtimoiy faollik, pragmatik tashqi siyosat qanday qilib chuqur va barqaror transformatsiya asosi bo‘la olishiga misol sifatida qiziqarlidir.

— Yangi O‘zbekiston islohotlarining 10-yilligi munosabati bilan mamlakatimiz xalqi va rahbariyatiga qanday tilaklaringiz bor? Kelgusi yillarda O‘zbekistonning yanada rivojlanishi borasida kutilmalaringiz qanday?

— Islohotlarning 10 yilligi va mamlakat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan yangi O‘zbekiston rahbariyati va qardosh xalqiga tinchlik, barqarorlik, hamjihatlik va farovonlik yor bo‘lsin. Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda yangidan yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Boshlangan barcha islohotlar bundan buyon ham asosiy maqsadga — insonlar farovonligini yuksaltirish, adolarni mustahkamlash, zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan, ta’lim va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilaversin. So‘nggi yillarda shakllangan yangilanish shijoati saqlanib qolishi va har bir oila, har bir hudud hamda har bir fuqaro hayotida sezilarli natijalarini berishi juda muhimdir.

Men O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyotiga katta umid va ishonç bildiraman. Aminmanki, mamlakat ochiq, zamonaviy va jadal rivojlanayotgan davlat sifatidagi mavqeini izchil mustahkamlab, turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirib, mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shishda davom etadi.

“Dunyo” AA

Istanbul shahri

Inson qadri uchun


Mahalla insoniyat tamadduni tarixida jamoaviy yashash tarzining muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida shakllangan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida nafaqat hududiy birlik, balki aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy munosabatlarini tartibga soluvchi muhim maskan vazifasini bajargan.

Mahallaning mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllanishi aynan o‘rta asrlarga borib taqaladi. Bu davrda shaharlar hunarmandlik, savdo-sotiq va madaniyat markazlariga aylanib, aholining kasbiy va hududiy birlashuvi kuchayib borishi natijasida mahallalar muayyan kasb egalari, qarindoshlik munosabatlari yoki etnik yaqinlik asosida tashkil topa boshlagan.

Shaharning eng kichik ma’muriy-ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida har bir mahalla ichki boshqaruv tizimi, jamoat tartibi va urf-odatlariga ega bo‘lgan. Qayd etish joizki, o‘rta asrlar mahallasi, eng avvalo, aholining ijtimoiy muhofazasini ta’minlovchi tuzim vazifasini bajargan. Muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatish, yetim va beva-bechoralarni qo‘llab-quvvatlash, hasharlar tashkil etish, tabiiy ofatlar yoki boshqa qiyinchiliklarga uchraganlarga ko‘mak berish mahallada keng tarqalgan udumlardan biri bo‘lgan.

Mamlakatimizni ushbu noyob institutsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Aynan mahallada davlat siyosati insonlarning kundalik hayoti bilan uyg‘unlashib, ko‘plab ijtimoiy masalalar idoralarda emas, balki joylarda, oilalar davrasida hal etiladi.

Shu bois, fuqarolar yig‘inlari faoliyatini rivojlantirish va imkoniyatlarini kengaytirish masalasi doim e’tiborda. Chunki mahalla tizimi samaradorligi davlat qarorlarining har bir



Ixtiyor JALILOV, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

insonga tez, manzilli va natijador yetib borishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda mahallaning jamiyat hayotidagi o‘rni hamda ta’sirini kuchaytirish



bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmogda. Tan olish kerak, yaqin yillargacha ko‘plab mahallalar yechimini kutayotgan muammolar girdobida edi. Yo‘llarning nosozligi, infratuzilmadagi kamchiliklar, ishsizlik, ijtimoiy muammolar, yoshlar uchun imkoniyatlar cheklangani odamlarni tashvishga solardi. Ular o‘z orzu-umidlari bilan yashar, o‘zgarishlarni mushuqlik bilan kutardi.

Bugun esa mahallalar tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Yangi yo‘llar va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari barpo etildi. Ko‘chalar obod bo‘ldi, zamonaviy ijtimoiy obyektlar bunyod etildi. Tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlanmogda, ehtiyojmand oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish tizimi yaratildi.

Mahalla endi tashabbuslar tug‘iladigan, yangi ish o‘rinlari yaratiladigan, eng muhimi, odamlarning muammolari o‘z yechimini topadigan manzilga aylandi.

Bu o‘zgarishlar mahallalarga qaratilayotgan doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik samarasidir. Davlatimiz rahbari hududlarga har bir tashrif davomida aholi bilan yuzma-yuz muloqot



qiladi, ularning taklif va muammolarini diqqat bilan tinglaydi. Ana shu samimiy muloqotlarda ko‘tarilgan masalalar videoselektor yig‘ilishlari, muhokamalar va taqdimotlarda atroflicha ko‘rib chiqilib, o‘zining amaliy yechimini topmogda.

2026-yil Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb e’lon qilinishi munosabati bilan joriy yil 24-iyun kuni Prezidentimizning “Mahalla boshqaruvinin samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi.

Mazkur hujjat mahalla instituti yanada mustaqil va xalqchil tuzilmaga, jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylalishiga ko‘maklashish, uning jamiyatdagi

nufuzi va rolini kuchaytirish, shuningdek, faoliyatini raqamlashtirish maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Unga ko‘ra, mahalla raisi ijtimoiy muammolarni qayd etuvchi shaxsdan o‘z hududining ijtimoiy-iqtisodiy buyurtmasini shakllantiruvchiga aylanadi. Bunda muammo aniq hisob-kitob qilinadi, loyiha tayyorlanib, mas’ul tashkilotlarga vazifa qo‘yiladi.

Prezidentimiz raisligida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yetilgisi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha shu yil 16-iyul kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash, aholi muammolarini hal etish va

“yettilik” mas’uliyatini oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Bugun mahalla bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamoat xavfsizligini mustahkamlash va yoshlar tarbiyasi kabi muhim masalalar tutashadigan yagona maskanga aylangan. Shu bois, mahalla tizimini yanada rivojlantirish faqat ma’muriy qarorlar bilan cheklanib qolmay, puxta ilmiy yondashuv, zamonaviy metodikalar va chuqur tahliiliy asoslarni ham talab etadi.

O‘rganishlar ko‘rsatmogdaki, shu vaqtgacha mamlakatimizda tadqiq etilgan ilmiy ishlarining juda kam qismida mahallaga aloqador ayrim masalalar o‘rganilgan. Shu munosabat bilan Mahallani rivojlantirish milliy instituti tashkil etiladigan bo‘ldi.

Yangi institut mahalla tizimidagi islohotlarni ilmiy tahlil qilish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish, “yettilik” faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Ushbu tizim orqali har yili mahalla tizimi va “yettilik” a’zolarining malakasi oshiriladi.

Mahallalarda xususiy bog‘cha, maktab, klinika va sport inshootlari qurish uchun yerni auktsionga chiqarish vakolati ham mahalla raislariga beriladi. Davlatimiz rahbari mahalla raisi ijtimoiy muammolarni hal qilish, tozalikni ta’minlash va daromadni ko‘paytirishga xizmat qiladigan loyihalarda tashabbuskor bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

Bu yil yurtimiz mustaqilligining 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g‘oya asosida keng nishonlanadi. Ana shu munosabat bilan “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” e’lon qilindi.

Yig‘ilish yakunida Prezidentimiz barcha mas’ullarga aniq topshiriqlar berib, ularning ijrosi uchun qat’iy muddat va zarur mablag‘ manbalarini belgilab berdi. Endi asosiy vazifa topshiriqlar natijasi har bir mahallada, har bir xonadon, eng muhimi, har bir inson hayotida sezilishi. Chunki bugungi mahalla xalq farovonligi, tinchligi va mamlakat taraqqiyotining eng mustahkam poydevoridir.



Eldor ARIPOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezident huzuridagi
Strategik va mintaqalararo
tadqiqotlar instituti
direktori

Boshlanishi 1-betda

Mazkur yondashuv doirasida institutsional taraqqiyot bilan bozor islohotlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Valyuta bozori liberallashtirilishi bunga yorqin misol, u to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya oqimini sezilarli darajada faollashtirdi. So‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga 150 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiya jalb qilindi.

Investitsiyaviy faollikning ortishi, o‘z navbatida, sud-huquq tizimini isloh qilish hamda mulk huquqini himoyalash kafolatlarini kuchaytirishga obyektiv ehtiyojni yuzaga keltirdi. Natijada global kapitalning mamlakatga ishonchi yanada mustahkamlanib, “ijobiy qayta aloqa” tamoyiliga asoslangan yaxlit jarayon shakllandi.

Uzluksiz islohotlar mantig‘i fiskal siyosatda ham izchil davom etmoqda. Soliq tizimining tubdan soddalashtirilishi va fiskal yukning

sharoitida ichki barqarorlikni ta‘minlashga qodir bo‘lgan moslashuvchan davlat tizimini shakllantirishdan iborat. Raqamli, huquqiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bir-birini o‘zaro kuchaytirishi, islohotlarning umumiy samarasi modernizatsiya jarayoniga barqaror va ortga qaytmas tus bermoqda.

Ikkinchidan, xalq manfaatlarini ustuvorligini ta‘minlash va inson kapitaliga sarmoya kiritish. O‘zbekistondagi islohotlarning bosh mezonini sifatida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyili belgilangan. Bu esa ijtimoiy siyosatni tubdan qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Endi davlat tomonidan ushbu yo‘nalish mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotiga qaratilgan strategik investitsiya sifatida baholanmoqda.

Mazkur konsepsiya qator ustuvor va fundamental maqsadlarga erishish orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

Shunday maqsadlardan biri raqobatbardosh avlodni shakllantirishdir. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasiga yo‘naltirilayotgan davlat xarajatlari sezilarli darajada oshirildi, yangi oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, xorijiy universitetlar filiallari faoliyati kengaytirildi, shuningdek, maktab ta‘limi tizimi izchil modernizatsiya qilinmoqda. Natijada maktabgacha ta‘lim bilan qamrov darajasi 2016-yildagi 20 foizdan 2025-yilda 78 foizga, oliy ta‘lim bilan qamrov esa 9 foizdan 44 foizgacha yuqori darajaga yetdi.

Ta‘lim tizimini keng ko‘lamda modernizatsiyalashga milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim kafolati sifatida qaralmog‘da. Bolalarning erta rivojlanishi va sifati oliy ta‘limga sarmoya kiritish orqali davlat yuqori malakali kadrlar salohiyatini shakllantirishni maqsad qilgan. Zero, aynan shunday kadrlar kelajak texnologiyalariga moslasha oladigan va innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganidan avlod sifatida voyaga yetadi.

Yana bir muhim vazifa ijtimoiy harakatchanlikning inklyuziv mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. O‘zbekiston ijtimoiy ne‘matlarni barchaga bir xil taqsimlash tamoyilidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli ko‘llab-quvvatlash tizimiga o‘tmoqda.



bosqichma-bosqich kamaytirilishi kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishiga kuchli turki berdi. Jumladan, 2025-yilga kelib, O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 milliondan oshdi.

Tadbirkorlik faolligi oshishi tizim oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Erisilgan sur‘atlarni saqlab qolish uchun tranzaksiya xarajatlarini keskin kamaytirish zarurati yuzaga keldi. Mazkur vazifaga javoban davlat sektori kompleks raqamlashtirildi. Bugungi kunda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari murojaatlarining 80-85 foizdan ortig‘i elektron shaklda tushmoqda.

Islohotlarning navbatdagi bosqichida biznesni har tomonlama ko‘llab-quvvatlash ko‘lami yanada kengaytirildi. 2026-yil 1-yanvardan O‘zbekistonda “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili asosida tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimi joriy etilmoqda. Tizim doirasida ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida yetti turdagi xizmatni bir vaqtning o‘zida ko‘rsatish nazarda tutilgan.

Shu tariqa davlat sektorining tizimli raqamli transformatsiyasi xususiy tashabbuslarni amalga oshirish shart-sharoitlarini tubdan soddalashtirish bilan uyg‘unlashtirib, ma‘muriy islohotlarni iqtisodiy liberallashtirishning bevosita texnologik davomiga aylantirdi.

Mazkur taraqqiyot yo‘lining muhim xususiyati global tahdidlar va beqarorlik

“Ijtimoiy lift” vositalari faol joriy etilishi fuqarolarni iqtisodiy hayotga keng jalb qilish imkonini bermoqda. Shu maqsadda ularning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun real imkoniyatlar yaratadigan qator mexanizmlar — subsidiyalari, grantlar, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari va imtiyozli kreditlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Belgilangan vazifalar doirasida qabul qilingan muhim qarorlardan biri ijtimoiy masalalarni hal etish vakolatlarining mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilishi bo‘ldi. Bu har bir oilaning ehtiyojlarini imkon qadar to‘g‘ri aniqlash va baholash imkonini yaratdi. Mazkur yondashuvni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida noyob “mahallabay” tizimi — har bir mahallada aholi va tadbirkorlar bilan bevosita ishlashga yo‘naltirilgan yangi boshqaruv usuli joriy etildi.

Ma‘muriy islohotlar bilan birga sohaning chuqur raqamli transformatsiyasi ijtimoiy yo‘nalishdagi taraqqiyotning tizimli katalizatoriga aylandi.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestr” platformasi joriy etilishi davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi tamoyillarini shakllantirdi. Byurokratik to‘siqlarning katta qismi bartaraf etilishi hamda resurslarni taqsimlashda inson omili minimallashtirilishi natijasida shaffoflik ta‘minlanib, imkon qadar



ko‘proq fuqarolarni yordam bilan qamrab olishga erishildi.

Tanlangan strategiyaning samaradorligi erishilgan natijalarning ijobiy dinamikasi bilan tasdiqlanmoqda. So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 35 foizdan 5,8 foizgacha qisqardi.

Mazkur ko‘rsatkichlar nafaqat aholi turmush darajasi va sifati izchil yuksalayotgani, balki uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik va ichki siyosiy osoyishtalilikning mustahkam poydevori shakllanayotganini ham ko‘rsatadi.

Mulk va barqaror daromadga ega inson o‘z qadr-qimmatini nafaqat qonun, balki iqtisodiy mustaqilligi bilan ham kafolatlangan fuqarolik jamiyatining ongli va faol ishtirokchisiga aylanadi.

Mamlakatning iqtisodiy yutuqlarini jamiyat farovonligini oshirishga yo‘naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda bozorni liberallashtirish, yalpi ichki mahsulot o‘sishi va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb etishga maqsadning o‘zi emas, balki insonlarning hayot sifatini yaxshilash va rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida qaralmog‘da.

Mazkur strategiya samaradorligi aniq raqamlar bilan tasdiqlanmoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning AT xizmatlari eksporti tarixiy marrani zabt etib, 1 milliard dollardan oshdi. Ayni paytda bu ko‘rsatkich hali mavjud imkoniyatlarning chegarasi emas. Uzoq muddatli strategik rejalarga muvofiq, 2030-yilga borib, eksport hajmini besh barobar — 5 milliard dollargacha oshirish ko‘zda tutilgan.

Amalga oshirilayotgan transformatsiya ko‘lami chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni qayd etayotgan mustaqil xalqaro institutlar ma‘lumotlari bilan ham tasdiqlanmoqda.

2025-yilda O‘zbekiston ilk bor “Global Startup Ecosystem Index” reytingining eng yaxshi 100 taligidan joy olib, Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan startap xabi maqomini mustahkamladi.

Uchinchidan, davlat va xususiy sektorning strategik sheriklik modeliga tayanish.

Ma‘muriy transformatsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri “davlat — xususiy tashabbuslar uchun platforma” modelini joriy etish bo‘ldi. Bu davlatning resurslarni monopol tarzda boshqarish rididan bosqichma-bosqich voz kechib, tartibga solish, muvofiqlashtirish va institutsional funksiyalarga, shuningdek, raqobat, tadbirkorlik va innovatsion faollikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga e‘tibor qaratishini anglatadi. Mazkur yondashuv o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar majmui orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

Birinchisi, davlat xususiy kapital samaraliroq faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlaridan izchil ravishda chiqib bormog‘da. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali biznes ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishga keng jalb etilmoqda. Mazkur strategiya tadbirkorlarni davlat bilan birgalikda jamoat ne‘matlarini yaratadigan teng huquqli hamkor maqomiga ko‘tarish imkonini berdi.

Mazkur yondashuv biznes jamajiyati bilan samarali qayta aloqa mexanizmini yo‘lga qo‘yish imkonini bermoqda. Xususan, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi davlat organlari va tadbirkorlar ishtirokida qo‘shma yig‘ilishlar o‘tkazish amaliyotini joriy etgan. Ularda tadbirkorlar davlat qarorlarini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayoniga bevosita jalb qilinadi. Bu biznesning boshqaruv

qarorlarini shakllantirishdagi to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirokini ta‘minlab, samarasiz tartibga solish xavfini kamaytiradi.

Ikkinchisi, platformaviy model doirasida davlat boshqaruvi raqamli asosga o‘tkazilmoqda. Bunda gap nafaqat xizmatlarni avtomatlashtirish, balki shaffof muhitni shakllantirish haqida bormog‘da.

Bunday sharoitda boshqaruv jarayonlari oldindan prognoz qilinadigan tus oladi, qarorlarning barcha bosqichlarda kuzatilishi korrupsiyaviy omillarni amalda bartaraf etadi hamda davlat organlarining jamiyat va xalqaro investorlar oldidagi hisobdorligini bir necha barobar oshiradi.

Davlat apparatini raqamlashtirish bilan birga davlat umummilliy texnologik yangilanishning katalizatori vazifasini ham zimmasiga olmoqda. Regulyator sinov maydonchalarini va innovatsion rivojlanishning ixtisoslashtirilgan hududlari — AT parklarni tashkil etish orqali startaplar hamda yuqori texnologiyali kompaniyalarga yangi yechimlarni qonuniy asosda sinovdan o‘tkazish imkoniyati yaratilmoqda.

Mazkur strategiya samaradorligi aniq raqamlar bilan tasdiqlanmoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning AT xizmatlari eksporti tarixiy marrani zabt etib, 1 milliard dollardan oshdi. Ayni paytda bu ko‘rsatkich hali mavjud imkoniyatlarning chegarasi emas. Uzoq muddatli strategik rejalarga muvofiq, 2030-yilga borib, eksport hajmini besh barobar — 5 milliard dollargacha oshirish ko‘zda tutilgan.

Amalga oshirilayotgan transformatsiya ko‘lami chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni qayd etayotgan mustaqil xalqaro institutlar ma‘lumotlari bilan ham tasdiqlanmoqda.

2025-yilda O‘zbekiston ilk bor “Global Startup Ecosystem Index” reytingining eng yaxshi 100 taligidan joy olib, Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan startap xabi maqomini mustahkamladi.



Bu siyosatning asosiy maqsadi mamlakatni intellektual va moliyaviy kapital uchun global jozibador markazga aylantirishdan iborat. Bunda qulay huquqiy muhit va texnologik ochiqlik g‘oyaning yaratilishidan uni jahon miqyosida tijoratlashtirishgacha bo‘lgan jarayonni imkon qadar tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonning modernizatsiya strategiyasi kelajakni tizimli ko‘ra bilish va oldindan chora ko‘rishga asoslangan strategik boshqaruvni nazarda tutuvchi farsayt siyosati tamoyiliga asoslanadi. Xatarlarni uzoq muddatli prognoz qilish va ularga mos yechimlarni oldindan ishlab chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Mazkur strategiya islohotlarning, ayniqsa, ikkita muhim yo‘nalishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Birinchisi — yoshlar siyosati. Bugungi kunda aholining qariyb 25 foizi, ya‘ni 9,5 million nafarini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Har yili qariyb 270 mingta yangi oila qurilayotganini hisobga olganda, ushbu yo‘nalish inson kapitalini boshqarishga puxta va har tomonlama o‘ylangan yondashuvni talab etadi.

Har yili qariyb 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelmog‘da. 2030-yilga borib ushbu ko‘rsatkich 1 million nafarga yetishi mumkin.

Shu munosabat bilan yosh avlod salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun inklyuziv muhit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Ta‘lim sifati uzoq muddatli raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biri ekanidan kelib chiqib, mamlakatda AT parklar hamda ixtisoslashtirilgan yoshlar sanoat zonalarini tarmog‘idan iborat keng infratuzilmani shakllantirishga kirishildi.

“Bir million dasturchi” loyihasi kabi keng ko‘lamli ta‘lim tashabbuslarini amalga oshirish hamda mutaxassislarning xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lishini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston yoshlarining global raqamli mehnat bozoriga samarali integratsiyalashuvini ta‘minlamog‘da. Mazkur chora-tadbirlar O‘zbekistonni shunchaki texnologiyalarni qabul qiluvchi mamlakat sifatida emas, balki yosh va malakali kadrlar salohiyati yuqori darajada jamlangan, shakllanib borayotgan mintaqaviy texnologik markaz sifatida baholash imkonini beradi.

Texnologik modernizatsiya bilan birga ko‘llanilayotgan farsayt boshqaruvi modeli kadrlar zaxirasi va boshqaruv elitasini tizimli ravishda yangilashga qaratilgan. Har bir mahallada yoshlar yetakchisi instituti joriy

samarali “ijtimoiy liftlar”ni shakllantiruvchi dinamik tizimga sifat jihatidan transformatsiya qilinmoqda. Natijada yoshlar bosqichma-bosqich nafaqat islohotlarning asosiy manfaatdor qatlamiga, balki ularning uzoq muddatli barqarorligi va ortga qaytmassligining muhim kafolatlaridan biriga aylangan.

O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga qaratilgan ikkinchi yo‘nalish iqlim kun tartibi bo‘lib, uning doirasida mamlakat iqlim xatarlarini strategik boshqarish yo‘lini tanladi.

Mazkur sohadagi ichki islohotlar suvdan ekstensiv usullarda foydalanishdan voz kechib, yuqori texnologiyali klaster yondashuviga o‘tishni nazarda tutuvchi “aqlii suvdan foydalanish” tamoyiliga asoslanadi. Bu boradagi asosiy tizimli vosita irrigatsiya infratuzilmasini keng ko‘lamda modernizatsiyalash, jumladan, kanallarni betonlash va tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish dasturi bo‘ldi.

Chora-tadbirlar natijasida yiliga 7 milliard kub metr suvni tejash imkoniyati yaratildi. Bu hajm mintaqadagi eng yirik suv omborlari sig‘imi bilan qiyoslanadi.

Sohani texnologik yangilash suv resurslarini boshqarish mexanizmlarini raqamlashtirish bilan izchil davom ettirildi. “Smart Water” tizimi joriy etilishi suv taqsimoti va iste‘molini real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratdi. Natijada suv taqsimoti shaffofligi sezilarli darajada oshib, o‘nlab yillar davomida mamlakat suv balansiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelgan samarasiz yo‘qotishlarni imkon qadar kamaytirildi.

Agar sohani modernizatsiyalash bilan birga davlat “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida keng ko‘lamli “yashil qalqon”ni shakllantirish tashabbusini ilgari surdi. Dastur iqlim o‘zgarishiga moslashish hamda shahar muhiti sifatini yaxshilash vositasi sifatida yashil hududlarni izchil kengaytirishni nazarda tutadi.

Nisbatan qisqa davrda ushbu tashabbus umummilliy miqyosdagi iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyasiga aylandi. Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar barpo etish alohida ahamiyat kasb etdi. Ikki million gektardan ortiq maydonda o‘rmonzor yaratish nafaqat tuz va chang bo‘ronlariga qarshi kurashish vositasi, balki cho‘llanish hamda yer degradatsiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha milliy innovatsion usullarni sinovdan o‘tkazish maydoniga ham aylandi.

Mintaqaviy darajada O‘zbekiston suv resurslarini Markaziy Osiyoning umumiy strategik boyligi sifatida e‘tirof etish konsepsiyasini izchil ilgari surmoqda. Mamlakat iqlim o‘zgarishiga moslashish, transchegaraviy daryolarni birgalikda boshqarish hamda ekologik texnologiyalar almashinuvi sohalarida hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish tashabbuslari sifatida faol ishtirok etmoqda.

Mazkur siyosatning amaliy ifodasi sifatida Iqlim texnologiyalari bo‘yicha mintaqaviy markazni tashkil etish tashabbusi ilgari surildi hamda BMTning Orolbo‘yi mintaqasiga oid rezolyutsiyalari qabul qilindi. Bu O‘zbekistonning ekologik diplomatiya va iqlim sohasidagi ekspertiza bo‘yicha mintaqaviy markazlardan biri sifatidagi mavqeiini sezilarli darajada mustahkamladi.

Tanlangan strategiya samaradorligi mamlakatning ichki iqtisodiy ko‘rsatkichlari va xalqaro baholar bilan tasdiqlanmoqda. Zamonaviy mexanizmlar joriy etilishi natijasida bir gektar yerga suv yetkazib berish uchun sarflanadigan energiya miqdori 25 foiz qisqartirildi. 2025-yilda O‘zbekiston global Ekologik samaradorlik indeksida (Environmental Performance Index — EPI) ekologik tizimlarni boshqarish samaradorligi bo‘yicha mintaqadagi eng jadal o‘lishni qayd etdi.

Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi ekologik va resurs cheklolvarini texnologik yangilanish hamda yangi raqobat ustunliklarini shakllantirish omiliga aylantirishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston nafaqat iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashishga, balki “yashil iqtisodiyot”, iqlim texnologiyalari va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish sohalarida o‘ziga xos ixtisoslashuvni shakllantirishga ham intilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonning bugungi modernizatsiya kursi tashqi o‘zgarishlarga javoban moslashish modelidan o‘z taraqqiyot yo‘lini faol ravishda shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaga o‘tilayotganini aks ettiradi. Shu bilan birga, bu o‘zgarishlar O‘zbekistonni inson, uning huquqlari, qadr-qimmat va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini turadigan yaxlit davlat modeliga aylantirdi.

Strategik nuqtayi nazardan, ijtimoiy kapitalning iqtisodiy aktivga bunday transformatsiyasini mamlakatga global beqarorlik ta‘siriga qarshi mustahkam ichki barqarorlikni ta‘minlash hamda ilg‘or innovatsiyalar, moliyaviy va inson kapitalini o‘ziga jalb etuvchi markazga aylanish imkonini beradi.

EL-YURT UMIDI
JAMG‘ARMASI

“Hozir O‘zbekistondagi OTMLarda 40 mingga yaqin chet ellik talaba tahsil olmoqda. Xorijiy fuqarolar uchun har yili 500 tagacha grant ajratishni ko‘zda tutuvchi “New Uzbekistan Scholarship” dasturi e‘lon qilindi. Oliy ta’limning xalqarolashuvi faol rivojlanmoqda, akademik harakatchanlik ko‘lami kengaymoqda. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

IMKONIYATLAR PLATFORMASI

yoxud taraqqiyotga intilayotgan jamoa



Boshlanishi 1-betda

— Bir yil — tarix uchun qisqa muddat, —dedi Gulnoza Ismoilova. — Ammo ayrim davrlar borki, ular yangi bosqichning boshlanishiga aylanadi. 2025-yil 5-mayda Prezidentimiz “El-yurt umidi” jamg‘armasini tubdan transformatsiya qilishga doir farmoni imzoladi. Bu institutsional o‘zgarish, inson kapitaliga tayangan yangi taraqqiyot modeliga o‘tish bo‘yicha muhim qadam bo‘ldi. 2025-2026-yillarda o‘tkazilgan ochiq stipendiya tanlovlari 447 nafar yoshlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “El-yurt umidi” stipendiyasi sovrindori bo‘ldi. Ularning 30 foizi — xotin-qizlar. 332 nafar yoshlar bakalavriatda, 100 nafari magistraturada, 15 nafari esa doktoranturada dunyoning yetakchi universitetlarida tahsil olish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Eng muhimi — g‘oliblarning 80 foizi dunyo TOP-100 universitetlariga qabul qilindi.

Bir vaqtning o‘zida jamg‘arma xalqaro ta’lim diplomatiyasining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Fulbright, Chevening, British Council, Turkiye Burslari va “Bolashaq” kabi yetakchi dasturlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Oksfordda o‘zbekshunoslik dasturi, Fransiyaning Airbus va ENAC kompaniyalari bilan qo‘shma loyihalar, davlat xizmatchilari uchun Garvard va BMT tizimidagi maqsadli stajirovkalar shular jumlasidan. Shuningdek, dunyoning 10 ga yaqin nufuzli universiteti bilan stipendiatlar uchun 50 foizgacha chegirma berish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ta’lim iqtisodiy o‘sish drayveriga aylanmoqda. “El-yurt umidi” jamg‘armasi esa bugun — imkoniyatlar platformasi, kelajak tizimi va taraqqiyot sari intilayotgan jamoa.

— **Mavjud ta’lim dasturlaridan tashqari, maqsadli stajirovkani tashkil etish borasida qanday ishlar bajariladi?**

— Bugun jamg‘arma davlat organlari va tashkilotlarining so‘rovi asosida maqsadli stajirovka dasturlari portfelini faol shakllantirmoqda. Mamlakatning uzoq muddatli istiqbolidagi raqobatbardoshligini belgilaydigan yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

So‘nggi bir yilda bunday dasturlarni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlik tarmog‘ini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar

politehnika universiteti bilan o‘tkazilgan muzokaralar yakunida O‘zbekistonning davlat xizmatchilari, tadqiqotchilari va tahlilchilari uchun ixtisoslashtirilgan stajirovka dasturlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Davlatimiz rahbari qo‘ygan asosiy vazifalar qatoridan huquqni muhofaza qilish tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi ham o‘rin olgan. Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o‘rtasida memorandum imzolandi. Shuningdek, qo‘shma “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Ushbu hujjat ixtisoslashtirilgan o‘qitishdan tortib, dunyoning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlarida kiberxavfsizlik, sun‘iy intellekt, robototexnika va dron texnologiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha xorijiy stajirovkalarni qamrab olgan kaskadli kadrlar tayyorlash tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Faoliyatimizda tibbiyot yo‘nalishi alohida o‘rin tutadi. Joriy yil bahorida jamg‘armaning ochiq tanlovi natijalariga ko‘ra saralab olingan bir guruh mutaxassis Parij va Strasburning yetakchi onkologiya markazlarida stajirovka o‘tab qaytdi. Dastur ishtirokchilari onkologik kasalliklarni tashxislash va davolashning ilg‘or usullari, universitet klinikalari faoliyatini tashkil etish hamda tibbiy menejmentdagi zamonaviy yondashuvlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Biz stajirovkalarni jahondagi ilg‘or amaliyotlarning sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi, fan, ta’lim va iqtisodiyot rivojiga xizmat qilishiga imkon beradigan xalqaro bilim va texnologiyalar transferi tizimini shakllantirmoqdamiz. Maqsadli stajirovkalarning asosiy vazifasi ham aynan shundan iborat: nafaqat muayyan mutaxassisi o‘qitish, balki bilim va inson kapitali uchun global raqobat sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishga qodir bo‘lgan yangi kompetensiyalar, texnologiyalar va boshqaruv yechimlarining mamlakatimizga qaytarilishini ta‘minlashdir.

— **Xorijiy mamlakatlar yoshlarining milliy oliy ta’lim muassasalarida o‘qishini moliyalashtirishga ko‘maklashish vazifalari qay darajada uddalanmoqda? Natijalar bugun nimalarda ko‘rinyapti?**

— “El-yurt umidi” jamg‘armasi haqida so‘z ketsa, ko‘pincha xorijda tahsil olayotgan O‘zbekiston fuqarolariga ko‘rsatilayotgan ko‘mak yodga olinadi. Biroq Prezidentimizning mazkur farmoni jamg‘armaning missiyasini sezilarli darajada kengaytirdi.

Jamg‘arma oldiga ilk bor qonunchilik darajasida xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishiga ko‘maklashish vazifasi qo‘yildi.

Bu — davlatimiz rahbarining g‘oyat muhim va strategik qarori. Bugun dunyoda ta’lim nafaqat kadrlar tayyorlash vositasi, balki “yumshoq kuch”, xalqaro hamkorlik va davlatlar o‘rtasida uzoq muddatli ishonchni shakllantirishning eng samarali qurollaridan biriga aylanib bormoqda.

Hozir O‘zbekistondagi OTMLarda 40 mingga yaqin chet ellik talaba tahsil olmoqda. Xorijiy fuqarolar uchun har yili



Shu bilan birga, birinchi bosqichda Markaziy Osiyo mamlakatlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu O‘zbekistonning yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch, ochiqlik va birgalikda rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi mintaqaviy siyosatiga to‘la mos keladi. Mohiyatan, mamlakatimiz nafaqat alohida talabalarining ta’limiga sarmoya kiritmoqda, balki mintaqabaqarorligini ta‘minlash, insoniy aloqalarni mustahkamlash va yagona bilimlar makonini shakllantirishga ham hissa qo‘shmoqda.

Bu iqlim o‘zgarishi, suv xavfsizligi, energetika, raqamli transformatsiya va barqaror



rivojlanish bilan bog‘liq zamonaviy tahdidlar sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning birorta mamlakati bu masalarni yolg‘iz o‘zi samarali hal eta olmaydi. Buning uchun umumiy bilim, hamkorlikdagi tadqiqotlar va talabalik davrlardagiy shakllangan kasbiy hamjamiyatlar zarur. Aynan shuning uchun O‘zbekistonda xorijiy talabalarni o‘qitish keng qamrovli ta’lim diplomatiyasi strategiyasining bir qismiga aylanmoqda.

Ta’lim — har doim kelajakka kiritilgan sarmoya. Bunday qarorlar samarasi kamdan-kam hollarda darhol seziladi. Ammo 10-20 yildan so‘ng aynan bugungi talabalar mintaqadagi xalqaro munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik va ilmiy aloqalarning mohiyatini belgilab beradi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti belgilab bergan vazifalar ijrosi doirasida o‘zbek tili, tarixi va madaniy merosini xalqaro ilmiy doiralarda targ‘ib qilishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, “El-yurt umidi” jamg‘armasining Oksford universitetidagi “Oksford o‘zbekshunoslik dasturi” tashabbusi alohida ahamiyat kasb etadi. 2025-yil oktabrdan boshlab Oksford universitetida zamonaviy o‘zbek tili va chig‘atoy tili kurslari yo‘lga qo‘yildi. Birinchi o‘quv yilining o‘zida dasturda Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Xitoy, Chexiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan 20 dan ortiq talaba va tadqiqotchi ishtirok etdi.

Ayniqsa, tinglovchilarning aksariyat sharqshunoslik, tarix, tilshunoslik, islomshunoslik, xalqaro munosabatlar va mintaqaviy tadqiqotlar yo‘nalishlari vakillari

ekani e‘tiborga molik. Ularning ko‘pi kelgusi ilmiy izlanishlarini Markaziy Osiyo va O‘zbekiston bilan bog‘lash niyatida.

Ilgari o‘zbek tilini bilmagan talabalar ikki akademik semestr davomida Umumevropa kompetensiyalari (CEFR) xalqaro shkalasi bo‘yicha A2 darajasiga erishib, o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallari va tarixiy manbalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Chig‘atoy tilini o‘rganish dasturi natijalari ahamiyati ham bundan kam emas. Kurs ishtirokchilari hozirdanoq Oksford universitetining Bodlian kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan XIV–XX asrlarga old noyob qo‘lyozmalar bilan ishlamoqda. Movarounnahr va Markaziy Osiyo tarixiga old tarixiy matnlar, diplomatik yozishmalar, adabiy asarlar hamda tarixiy solnomalarni o‘rganmoqda.

Ushbu tashabbus til o‘qitish doirasidan ancha keng. Zamonaviy dunyoda til madaniy diplomatiya, milliy merosni targ‘ib qilish va xalqaro gumanitar hamkorlikni mustahkamlash vositasi. Oksfordda o‘zbek tilini o‘rganayotgan har bir talaba O‘zbekiston tarixi, madaniyati va zamonaviy jarayonlarini chuqur anglaydigan salohiyatli tadqiqotchi, o‘qituvchi, ekspert, diplomat yoki jamoatchilik fikri yetakchisiga aylanadi.

— **“El-yurt umidi” jamg‘armasining Ota-onalar kengashi faoliyati haqida ham fikrlaringizni bilmoqchi edik.**

— Xalqaro darajadagi kadrlar tayyorlash haqida gap ketganda, ko‘pincha e‘tibor stipendiatlarning o‘ziga, universitetlari yoki ta’lim dasturlariga qaratiladi. Biroq har bir yosh insonning muvaffaqiyatli ortida doimo unga birinchi bo‘lib ishongan, yillar davomida qo‘llab-quvvatlagan va qiyinchiliklarni yengib o‘tishida yordam bergan odamlar turadi. Bular, shubhasiz, ota-onalardir.

Aynan shuning uchun ham so‘nggi yillardagi muhim yengiliklardan biri 2025-yil kuzida “El-yurt umidi” jamg‘armasi huzurida Ota-onalar kengashining tashkil etilishi bo‘ldi. Uning tarkibidan O‘zbekistonning turli hududidan kelgan stipendiatlarning ota-onalari, shuningdek, o‘zlaridan vakillar o‘rin oldi. Mohiyatan, kengash stipendiatlarimizning oilalari va ta’lim dasturlari ishtirokchilari o‘rtasidagi ochiq muloqot uchun o‘ziga xos maydonga aylandi.

Biz uchun bu qayta aloqa va jamoatchilik ishtirokini ta‘minlaydigan muhim institutdir. Chet elda o‘qish shunchaki akademik jarayon emas. Ko‘plab yoshlar uchun bu oiladan yiroqda uzoq vaqt yashash borasida ilk tajriba, o‘zga madaniyat, notanish til, yangi ijtimoiy sharoitlar va yuqori o‘quv yuklamasidir.

Moslashuv davri ko‘pincha nufuzli xorijiy universitetga o‘qishga kirishdan ham murakkab sinovga aylanadi. Bunday sharoitda oilaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugun Ota-onalar kengashi jamg‘arma hayotida ishtirok etmoqda. Uning vakillari an‘anaviy va masofaviy shakllarda o‘tkaziladigan forumlar, stipendiatlar bilan uchrashuvlar, onlayn muloqotlar va maslahatlashuvlarda faol.

Ayniqsa, turli mamlakatlarda tahsil olayotgan stipendiatlar bilan muntazam onlayn uchrashuvlar o‘tkazish amaliyoti katta ahamiyat kasb etdi. Bunday muloqotlar o‘quv jarayoni, moslashish, dastur bo‘yicha

majburiyatlarga rioya etish masalalarini muhokama qilish, shuningdek, jamg‘arma faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kengash muhim ijtimoiy vazifani ham bajaradi. Bugun stipendiatlarning ota-onalari mamlakatimiz bo‘ylab ta’lim imkoniyatlarining o‘ziga xos targ‘ibotchilarga aylanmoqda. Ular o‘z tajribasi bilan o‘rtog‘lashadi, boshqa oilalarga xalqaro ta’lim imkoniyatlari haqida so‘zlab beradi. Mavjud stereotiplarni bartaraf etishda yordam beradi va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash madaniyatini shakllantiradi.

— **Sizingcha, O‘zbekistonning keyingi 10-20 yillik taraqqiyotida qaysi sohalar uchun yuqori malakali kadrlar eng katta ahamiyat kasb etadi?**

— Bu juda qiziqarli va ayni paytda murakkab savol. Ochig‘ini aytсам, bugun dunyoda 20 yildan so‘ng qaysi kasblar ustunlik qilishini mulatto qilib bashorat qila oladiganlar deyarli yo‘q. Texnologik o‘zgarishlar sur‘ati shu qadar yuqoriki, bugun talab ko‘p bo‘lgan mutaxassislilar bir necha yildayoq jiddiy o‘zgarishi mumkin, kelajak kasblarining bir qismi esa hali umuman mavjudga kelmagan.

Sun‘iy intellekt, robotlashtirish, kvant texnologiyalari, biomuhandislik, yangi materiallar, raqamli platformalar va avtomatlashtirish hozir jahon iqtisodiyoti va mehnat bozori tuzilmasini insoniyat tarixida hech qachon kuzatilmagan tezlikda o‘zgartirmoqda. Shu sababli, asosiy vazifa doimiy o‘rganish, moslashish va noaniqlik sharoitida ishlashga qodir insonlarni shakllantirishdan iborat.

Shunga qaramay, aksariyat davlatlar, jumladan, O‘zbekistonning rivojlanishini belgilab beradigan global tendensiyalar ham bor. Birinchi va ehtimol, eng yaqqol tendensiya raqamli transformatsiyadir. Bugun raqamli texnologiyalar alohida bir soha emas, balki hayotning deyarli barcha jabhasi negiziga aylanib bormoqda.

Sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar, kiberxavfsizlik, bulutli texnologiyalar, raqamli davlat va avtomatlashtirish mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Prezidentimiz raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va sun‘iy intellektni joriy etishga alohida e‘tibor qaratayotgani bejiz emas. Shu bois, “Computer Science”, “Artificial Intelligence”, “Cybersecurity”, “Data Science” va raqamli boshqaruv sohalaridagi mutaxassislilar yaqin o‘n yilliklarda eng talabgir kadrlar qatorida qolaveradi.

Ikkinchi eng muhim vazifa iqlim o‘zgarishi va suv xavfsizligi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyo uchun suv masalalari bugun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va geosiyosiy muammoga aylanmoqda.

Aholi sonining o‘ssishi, iqlim o‘zgarishi, muzliklarning qisqarishi va suv resurslariga bosimning ortib borishi gidrologiya, suv menejmenti, iqlim siyosati, barqaror rivojlanish va suv diplomatiyasi sohalarida yangi avlod mutaxassislarning yetishib chiqishini taqozo etmoqda.

Bir necha yil avval bu kabi yo‘nalishlarga tor ixtisoslik sifatida qaralardi. Bugun esa ular milliy xavfsizlik va davlatlarning barqaror rivojlanishi masalasiga aylanmoqda.

Uchinchi yo‘nalish energetik o‘tishdir. Dunyo kam uglerodli iqtisodiyotga yuz tutmoqda. Quyosh va shamol energetikasi, energiya saqlash tizimlari, vodorod texnologiyalari, energiya samaradorligi va ekologik menejmentning rivojlanishi yangi kompetensiyalarga ulkan talabni yuzaga keltiradi. “Yashil” energetika sohasida keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirayotgan O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish strategik ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchi yo‘nalish sanoatlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz transport yo‘laklari, logistika, sanoat, tog‘-kon sektori, urbanistika va zamonaviy infratuzilma qurilishiga faol sarmoya kiritmoqda.

Bu esa muhandislar, materialshtunoslik, geologiya, konchilik ishi, transport tizimlari, arxitektura va yirik infratuzilma loyihalarini boshqarish bo‘yicha mutaxassislarga talab yuqori ekanini anglatadi.

Tibbiyot va biotexnologiyalarni alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman. Pandemiya tajribasi kuchli milliy sog‘liqni saqlash tizimi naqadar muhim ekanini ko‘rsatdi. Kelajakda genetika, biomuhandislik, personallashtirilgan tibbiyot, onkologiya, farmatsevtika va tibbiy texnologiyalar sohasidagi mutaxassislalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bugun butun dunyoda bunday kompetensiyalarga talab yuqori ekanini ko‘rib turibmiz.

Biroq eng qiziqarli yo‘nalish, ehtimol, kosmik sanoat. Yaqin-yaqingacha kosmosga parvoz faqat o‘ta qudratli davlatlar sohasi sifatida qabul qilinardi. Bugun esa kosmik texnologiyalar aloqa va navigatsiyadan tortib, iqlim monitoringi, qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslarni boshqarishga bo‘lgan kundalik iqtisodiyotning bir qismiga aylanmoqda.

O‘zbekistonning kosmik dasturi rivojlanishi, “O‘zbekkosmos” agentligi faoliyati, sun‘iy yo‘ldosh texnologiyalari va Yerni masofadan zondlashning joriy etilishi allaqachon mulgao yangi yo‘nalishdagi mutaxassislarga talabni shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, ishonchim komilki, 10-20 yildan so‘ng tor professional ko‘nikmalar eng talabgir bo‘ladi. Yetakchilik, tanqidiy fikrlash, xalqaro muhitda ishlay olish, xorijiy tillarni bilish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish va doimiy o‘rganish qobiliyati birinchi o‘ringa chiqadi.

— **Jamg‘arma bitiruvchilarining mamlakat taraqqiyotiga ta’sirini qanday mezonlar bilan baholaysiz? Bugun dunyoda iqtidor uchun raqobat kuchaymoqda. O‘zbekiston o‘zining eng salohiyatli yoshlarini saqlab qolish uchun nimalar qilishi kerak?**

— Bu, shubhasiz, inson kapitalini rivojlantirishga e‘tibor qaratayotgan har qanday mamlakat uchun eng muhim masalalardan. Ta’lim va kadrlar tayyorlash haqida so‘z borganda, natijalarni faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan baholash fikri tug‘iladi: qancha talaba xorijda o‘qiyapti, qancha stipendiya ajratildi, nechta kelishuv imzolandi yoki qancha dastur amalga oshirildi? Biroq asosiy savol doim boshqacha qo‘yiladi: bu sarmoya mamlakat rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

Aynan shuning uchun ham bugun kadrlar tayyorlash samaradorligini baholashning yanada kompleks tizimiga bosqichma-bosqich o‘tmoqdamiz. Albatta, biz uchun an‘anaviy ko‘rsatkichlar: o‘qishni tamomlash, mutaxassislarning mamlakatga qaytishi, ish bilan ta’minlanishi, mansab pillapoyasidan ko‘tarilishi va davlat islohotlarini amalga oshirishdagi ishtiroki muhim. Biroq bitiruvchilarning sohalar, tashkilotlar va mamlakat iqtisodiyoti rivojiga qo‘shayotgan real hissasini ko‘rsatuvchi, ta’sir KPIlari deb ataladigan ko‘rsatkichlar tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Biz bitiruvchining nafaqat qayerda ishlayotganini, balki o‘z atrofida qanday o‘zgarishlar qilyotganini ham baholaymiz. Masalan, u yangi texnologiyalarni joriy qildimi, boshqaruvning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqdimi, tadqiqot laboratoriyasini tashkil etdimi, mutaxassislarning yangi avlodini tayyorladimi, xalqaro investitsiyalarni jalb etdimi, innovatsion loyihani amalga oshirdimi yoki tashkilot ishi samaradorligini oshirdimi?

Yakunda davlat diplomning o‘zigagina emas, balki kelajakdagi ijtimoiy va iqtisodiy samaraga sarmoya kiritadi.

Bunday natijalarni hozirdanoq ko‘rib turibmiz. Bugun jamg‘arma bitiruvchilari mamlakatning deyarli barcha strategik muhim tarmoqlarda faoliyat yuritmoqda. Misol uchun, sog‘liqni saqlash sohasida yosh mutaxassislari diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini joriy etmoqda. Yosh shifokor Bobur To‘rayevning bolalardagi kardiologik kasalliklarni davolashda yangi yondashuvlarni tatbiq etayotgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida va raqamli hukumat loyihalarida mamlakatning raqamli transformatsiyasi, elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda ishtirok etayotgan jamg‘arma bitiruvchilarining butun guruhli shakllandi.

Bitiruvchilarimiz Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, ilmiy-tadqiqot institutlari, “O‘zbekkosmos” agentligi, konchilik sanoati, energetika, bank sektori va boshqa muhim yo‘nalishlarda mehnat qilmoqda.

So‘nggi yillarda jamg‘arma bitiruvchilarining bir necha avlodi shakllanib ulgurdi. Ular rahbarlik lavozimlarini egallay boshlamoqda, kasbiy hamjamiyatlarda tuzmoqda, qarorlar ishlab chiqishda qatnashmoqda, tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni yo‘lga qo‘yib bormoqda.

Muhimi shundaki, kasbiy muhitga kirib borish hali o‘qish davridayoq boshlanadi. Masalan, 2025-yilda AQSH va Buyuk Britaniyada tahsil olayotgan stipendiatlarning ilk guruhi “IT Park Uzbekistan”da amaliyot o‘tab, startaplar, ventchur investitsiyalar va raqamli texnologiyalar sohasida amaliy tajriba o‘rtirdi. 2026-yilda esa stipendiatlar uchun amaliyot dasturiga 20 dan ortiq vazirlik va idora qo‘shildi; ular dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalarini bitiruvchilarini jalb etishdan manfaatdordir. Bu dastur yoshlarga milliy voqelikdan uzilib qolmaslik va ta’lim bosqichidayoq O‘zbekistondagi bo‘lajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.**



qilindi. Xususan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi va Turkiya Oliy ta’lim kengashi o‘rtasida memorandum imzolandi.

Gonkongning yetakchi universitetlari bilan hamkorlikni rivojlantirish alohida yo‘nalishga aylandi. Gonkong fan va texnologiyalar universiteti, Gonkong universiteti va Gonkong

500 tagacha grant ajratishni ko‘zda tutuvchi “New Uzbekistan Scholarship” dasturi e‘lon qilindi. Oliy ta’limning xalqarolashuvi faol rivojlanmoqda, akademik harakatchanlik ko‘lami kengaymoqda. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Yurtimizning barcha viloyatlarida bo'lgani kabi Jizzax shaharu qishloqlarini gullatib yashnatayotganlar — har bir maqsad, vazifa, rejaga pokiza qalb, toza niyat, yuksak ma'naviyat bilan qo'l urayotgan elparvar, yurtparvar zamondoshlarimiz.

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

YANGI O'ZBEKISTON

ENDI BU KENGLIKLAR – BOG'U GULISTON



Muhtarama ULUG'OVA,
“Ma'rifat” targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi

Ona O'zbekistonimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami yaqinlashib kelmoqda. Tariximizning eng shonli sahifasi bo'lgan bu kun mohiyatida yillarning salmoqdor bo'lib borishi emas, balki o'tgan davrda jonajon diyor erku ozodligi uchun umrini tikkan ajdodlar boshlagan ulug'vor vazifalarni bajarishda, yurt obodligi, xalq farovonligi yo'lida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, yutuqlar salmog'i muhimdir.

Qatrada quyosh aks etadi. Birgina Jizzax viloyati... Bugun uning cho'l zonalari, olis tog'li hududlari ham tanib bo'lmaz darajada yangilanib, obod bo'lib, rivojlanib, zamonaviylashib ketgani yangilik emas. Farzandlari azaldan dostonlar qahramonlari yanglig' otashqalb, shijoatli, mehnatsevar bo'lgan Jizzax tabiiy joylashuviga ko'ra cho'l zonasi, ammo bu tushuncha tarixda qolgandek. Yashillikka burkangan, zamonaviylashib borayotgan, taraqqiyoti baravj viloyat hozir mahalliy hamda xorijiy bozorlarga yiliga o'n minglab elektromobil va g'ildir mashinalar yetkazib berayotgan, zamonaviy yengil avtomobillarni yig'ish va ishlab chiqarishni o'lga qo'ygan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, saralash va to'g'ridan to'g'ri tashqi bozorga eksport qilish bilan shug'ullanuvchi yirik logistika xabiga aylangan, maishiy va sanoat ehtiyojlari uchun 1,5 mingdan ortiq turdagi elektrotexnika va yoritish jihozlari ishlab chiqaruvchi zabardast zavodga ega bo'lgan, viloyatda yetishtirilgan paxtani to'liq o'zida qayta ishlaydigan yirik klaster va fabrikalari kengayib borayotgan istiqbolli hudud — yangi Jizzaxga aylanmoqda.

Donishmandlar ilmu hunar, kashfiyotlar ezgu niyatli insonlar qo'lidagiga yaxshilikka xizmat qilishni aytadi. Yurtimizning barcha viloyatlarida bo'lgani kabi Jizzax shaharu qishloqlarini gullatib yashnatayotganlar — har bir maqsad, vazifa, rejaga pokiza qalb, toza niyat, yuksak ma'naviyat bilan qo'l urayotgan elparvar, yurtparvar zamondoshlarimiz.

Mustaqilligimizning 35 yillik to'yiga bag'ishlab Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati va hamkor tashkilotlar tomonidan “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida tashkil etilgan festival tadbirlari yuqori saviyada davom etmoqda. Ilmu fan, adabiyot, san'at va madaniyat xodimlarining bir guruh vakillari yozning ayni chillasida Jizzax viloyatiga bayramona kaffiyat bilan keldik. Qutlug' an'anaga ko'ra, festival muqaddimasida Jizzax shaharning eng go'zal, mazmun-mohiyati bilan betakror bo'lgan markaziy xiyobonida salobot to'kib turgan arbob, ijodkor, xalq Vatangga sadoqatli xizmatlari bilan tariximizda o'chmas nom qoldirgan Sharof Rashidov haykalini gullar bilan ziyorat qildik. Maydonga yonma-yon adabiyot bog' maydonida — she'riyatning qo'shqanot yanglig' namoyandalari Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim siymolari oldida jo'shqin mushoira boshlanib ketdi.



O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston

Mirzacho'l, G'allaorol, Zomin, Baxmal, Zarbdor, Arnasoy... Viloyatning qaysi hududida bo'lmang, har zarrasida quyosh nuri jivalangan tuproq, tog'u toshlar, yuksalgan zumrad archazorlar, olmozorlaru mevaorlar, gulu giyohlar va ularga hayot bag'ishlagan zilol suvlarning so'zbo'yoqlardagi tasviri — otashqalb shoir Hamid Olimjonning “O'zbekiston” she'ri dilingda jaranglayveradi.

Darvoqe, shoirning bu go'zal madhiyasi 1935-yilda yozilib e'lon qilingan va e'tiborlisi, ayni she'r o'zbek adabiyotida birinchi marta “O'zbekiston” deb sarlavha qo'yilgan asar hisoblanadi. Ungacha ijodkorlar ona yurtini she'ru dostonlarida ochiq tarannum etishlari ham siyosiy ayblovlariga vosita bo'lgan.

Adabiyot, san'atning jonkuyarlari bo'lgan yoshi ulug'lar o'tgan asrning ikkinchi yarmida ham otashqalb shoirlarimizning O'zbekiston haqida, o'zbek xalqimiz madhiyasida aytgan she'rlari-da siyosiy ta'qiblariga uchraganini yaxshi biladi. Yaqin tariximizning bu dardli sahifalari ham saboq beradi: garchi mustaqilligimiz jahon hamjamiyatiga 1991-yil 1-sentyabr kuni baralla e'lon qilingan bo'lsa-da, bugungi ozodu obod hayotimiz, taraqqiyot, farovonlik, dunyoviy e'tiroflar otoboblarimiz erku istiqlo uchun yuz ellik yillar avval jon tikib boshlagan kurashlarining ham maqsadi, orzulari to'yobidir.

Ko'ngil ka'balarin obod etayotganlar

Dastavval Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida joylashgan Nogironligi



bo'lgan ayollar uchun g'amxo'rlik markazidagi jismoniy va ruhiy yordamga muhtoj uch yuzga yaqin xotin-qizni yo'qladik. Ularni parvarishlayotgan, dardlarini bo'lishayotgan, og'irini yengil qilayotgan, vaqtlarini foydali, mazmunli mashg'ulotlar bilan o'tkazishda hamroh bo'layotgan, malakayu iqtidor kurtaklarini qadrlab ulg'aytirayotgan mehridaryolar xizmatlarini kuzatarkan, yuqoridagi fikr dilimdan ketmadi.

Katta maydonni egallagan binoning keng, gullar yashnab yotgan yo'laklariga tutash bahavo, chiroyli xonalarning ko'pchilik bekalari taqdirning og'ir sinovlariga uchragan yoki shunday taqdir bilan dunyoga kelgan: maxsus tibbiy komissiyaning tavsiyasiga

asosan Ijtimoiy himoya agentligi qarori bilan bu manzilga yuborilganlarning qay birlari qo'l-oyog'i chaqqon, qiynalib bo'lsa-da, gapingni uqadi, qay birlari esa u yonidan bu yoniga o'g'irilish uchun ham ko'makka muhtoj... Jismoniy, ruhiy ahvoli turlicha bo'lgan bu xotin-qizlar bilan ko'rishib, salomlashib, muloqot qilib yurarkanniz, bir holat alohida

Yusufning Vatan haqidagi she'rlarini o'qidi. She'riy satrlarni, iboralarni garchi qiynalib, kamchiliklar bilan talaffuz etsalar-da, ammo bu ma'suma yuraklarning hayotga, go'zallikka, xalq Vatang muhabbati samimiy, yuz-ko'zlari va so'zlarida jamiyatning mehri og'ushida ekanidan minnatdorlik balqib turardi.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimizdagi



diqqatimni tortdi: bu yerda mehnat qilayotgan ijtimoiy xodimlar, shifokoru hamshiralar, mehnat instruktorlari, kichik tibbiy xodimlarni ko'rganda bemor ayollarning yuzu ko'zlarida quvonch, yorug'lik, talpinish yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, ikki tomonni mehru muruvvat, bag'rikenglik, chin insoniylik rishtalari bog'lagan.

Yo'laklar devorlariga ilingan qo'l mehnati namunalari — kashtalar, munchoqlardan yig'ilgan manzaralar e'tibor tortadi, lekin maxsus ko'rgazma xonasidagi hamyoncha, nonsavatu choynakpo'shlar... qush ko'zidek mayda noziklarni terib irod qilingan mozaika gullar, manzaralarning bahosi yo'q. Chunki...

— Mana bu tabiat manzarasini doimo bir holatda yotadigan bemor ayol munchoqlardan terib chiqqan, — mehnat instruktori Sohiba Orziqulovaning bu gapidan lol bo'lib qoldim. — Ha, hayron bo'lmang. Shunaqa ayollar

har bir inson hayotdan rozi bo'lib yashashi kerakligi haqidagi ta'kidlari beixtiyor yodimga tushdi. Saodat Ochilova, Sayyora Qodirova, Sohiba Orziqulova, Matluba Ravshanova kabi fidoyi, sabru toqatli, qalbi egzulikka to'la xodimlar bu tamoyilni amalga oshirib, fidoyilik bilan xizmat qilyapti. Ularning mehnatlari Ka'bani obod qilish maqomi kabi ulug', albatta.

Ertamiz maktablardan boshlanadi

Baxmal tumanidagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktabning gulturu mevaor hovlisidan o'tib, ichkaridagi keng, nurafshon yo'laklar, o'quv xonalarni, u yerdagi yashnagan gullarni, o'quvchilarni chaqqon o'zlashtirish uchun ko'rgazmali qurollar, zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan sinf xonalarni kuzatarkanniz, xorazmlik ajoyib muallima, O'zbekiston Qahramoni Anora Mahmudovaning “Bola maktabga xuddi bayramga borandek borishi kerak”, degan gaplarini esladim. Ha, bunday sharoitlarda ilmga intilgan yosh qalblarning havasi, g'ayrati, qiziquvchanligi, izlanuvchanligi yanada ortishi tabiiy hol.

— Prezidentimiz farmoni bilan maktabimiz 2022-2023-o'quv yilida tashkil etilib, faoliyatini boshlagan, — deydi maktab direktori Surayyo Abdurahmonova. — Bu yil to'rinchii avlod bitiruvchilarini uchirma qildik. Avvalgi yillari sakson foizdan ortiq o'quvchilarni davlat oliy ta'lim dargohlariga o'qishga kirgandi. Qolganlari ham xususiy universitetlar talabasi bo'lgan. Maqsadimiz — davlat OTMlariga yuqori ballar bilan kira oladigan o'quvchilarni sonini yuz foizga yetkazish.

Maktabning sport zali hashamatli degan ta'rifga xo'p munosib. Maxsus sport maktablarining turli sport mashg'ulotlari, musobaqalar o'tkazishga moslab qurilgan va jihozlangan saroylaridan qolishmaydi. O'quvchilik yillarimni esladim, bunday sharoitda yoshlikdan chinqib borgan bolalarning jismoniy-ruhiy sog'lig'i umrining oxirigacha eng bebaho boyligi, katta maqsadlarga yetish yo'lidagi naqd imkoniyati bo'lib qoldi.

Qishloq elining bu maktabda o'qiyotgan o'g'il-qizlarning bilimga qiziqishi, yurish-turish va muomalada tengdoshlariga ibrat bo'layotgani, boshqalarga hurmatu odobi haqidagi gaplarini tinglab tashqariga chiqayotgandik, maktab darvozasidan kirib kelayotgan maktab yoshigayam yetmagan bolakaylar diqqatimni tortdi. Ular o'zlariga munosib o'lchamdagi boks charm qo'lqoplarini ko'tarib olgandi. Demak, mana shu polvonchalar ham sport zalida shug'ullanadi, bu

yerda mavjud imkoniyatlardan juda ko'pchilik foydalanayapti.

Ha, “bimiki — mingga, mingniki — tumanga”. Bugun fanlarni chuqur o'zlashtirib, maktabi, oilasi, mahallayu yurti sharafini yuksaltirayotgan o'g'il-qizlar atrofidagi yuzlab, minglab tengdoshlariga ibrat.

Hozir Jizzax shahrida Prezident maktabi, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi irod maktabi, Al-Xorazmiy nomidagi aniq fanlarga va Ibn Sino nomidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktablar hamda o'n bitta tumanda turli fanlarni chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarda 4921 o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olaypti. Inshaalloh, bular ilmu urfon osmonida o'chmas yulduz bo'lib chaqqan ajdodlarga munosib avlodlarni kamol topirish yo'lidagi dastlabki qadamlar, xolos.

Hikmat izlangana hikmatdir dunyo

Mustaqilligimizning ilk yillari edi. Og'ri jigar xastaligiga uchragan Abbas Navro'zov tibbiy muolajalar yordamida tuzalib ketishiga shifokorlar ham aniq-tiniq javob bermadi. Tashvishda qolgan xonadon a'zolaridan biriga kimdir bunday paytda tuya suti ichish juda foydali ekanini aytibdi. Noyob bo'lsa-da, viloyatda tuyani topishdi, uning sutini ichib darddan tamoman xalos bo'lgan Abbas Navro'zov hozir besh farzandning otasi. Ayni kunda u Mirzacho'l tumanining Erjar mahallasida o'zi tashkil etgan, tuyachilikka ixtisoslashgan “Xaloso xalos” mas'uliyati cheklangan jamiyati raisi.

— Tuya suti, ayniqsa, jigar kasalliklarini davolashda tengsizligini o'zim sinab ko'rgach, o'shanda qat'iy qarorga kelgandim. Qoraqalpog'istondan, Navoiy viloyatidan tuyalar olib keldik, — deydi Abbas Navro'zov.

— Ularni asrash, parvarishlash, o'stirish uchun tuman hokimligi o'ttiz gektar yer ajratib berdi. Hozir tuyalarimiz soni yuzdan ortdi. Shifotalariga so'rab-surishtirib Qozog'istonda, Qirg'izistonda, Tojikistonda ham keladi. Ular muayyan muddat tuyenang yangi sutini ichib, davo topadi. Shuning uchun mehmonxona ham tashkil qildik.

Ba'zilar “Qoraqalpog'istonda, Navoiy viloyatida ham tuyalar bor ekan, bemorlar Jizzaxga kelib yurishi shartmi?” deb savol beradi. Ajoyib jihati... bir misol bilan javob beraylik: vodiklik keksa bemorning o'g'illari onalarini yo'la mashaqqatidan qutqarish uchun hatto tuya sotib olibdi. Ammo vodikda boqilgan tuyenang sut onaxonga Mirzacho'l quyoshini emgan yantoqlarni, tikanlarni yegan, cho'l tuprog'ining taftini o'ziga singdirib, shu yerning suvini ichgan tuyalarimiz suti kabi naf bermabdi... Va yana: Navoiy viloyatida nari borsa kuniga 2 litrdan sut bergan tuyalardan bu yerda 5-6 litrdan shifobaxsh ne'mat sog'ib olinmoqda.

Yurtimizda xayrli ishlarining yuksak darajada qo'llab-quvvatlanishiga yana bir yorqin misol: xalq salomatligiga bu qadar foydali bo'lgan mahsulotni ko'paytirish uchun maxsus qaror bilan Erjar mahallasini tuyachilikka ixtisoslashtirish boshlandi. O'n beshta xonadonga 150 million so'mdan imtiyozli kredit ajratildi, hozir ular ikkitadan tuya sotib olib, tadbirkorlikni boshlab yuborgan.

Bunda bulbul kitob o'qiydi

Jizzax shahridan G'allaorol tumanidagi Avliyo qishlog'ida joylashgan Saad ibn Abu Vaqqos ziyoratgohiga qanday yetib kelganiniyam bilmay qolibmiz. Oltinchi sinf o'quvchisi Ziyoviddin Qahramonovning yod aytgan she'rlari, soddayu samimiy fikrlari, ayniqsa, badiiy asarlar mohiyatiga urg'u berib she'rlarni ifodali o'qishiga mahliyo bo'lib qoldik. Bu o'smiring ko'ngil bisotida, ayniqsa, ota yurt ta'rifi madhiyasi, muhabbati mavzusidagi she'rlar marjondek terilgan ekan. “Bekzod Hamroning mana bu she'rini juda yaxshi ko'raman”, deb o'qiy boshladi:

G'allaorol, bo'lakchasan, ko'rsam seni Ketar dildan kemtiklarim, o'yiqlarim. Odamlaring bir ajoyib, bir ajoyib, Juragimda sakrab yurgan kiyiklarim. ...Tikanlari tobonimga kirsin, mayli, Oylanayin jontog'ingning soyasidan...

Voh, bu o'smir “Odamlaring bir ajoyib, bir ajoyib!” degan satrni o'z lahasida o'qiganda, mehru muhabbatning tovlanishini ko'rsangiz, eshitsangiz! Qishloqdagi 33-maktab o'quvchisi Ziyoviddin yurish-turishi, sho'x tabiati, o'zini tutishidan tengdoshlarining bir vakili. Ammo tabiat, nabotot, hayvonotni asrash, ularni kelajak avlodga asl holicha yetkazish, havo, suv, tuproqni musaffo asrash haqidagi she'rlarni o'qiganda, lof demang, uning ko'ksida uyg'oq, hushyor, jonkuyar, tabiat va jamiyat oldida mas'ullikni zimmaga olgan katta yurak urayotganini his etasiz. Buning sababi oila hamda o'qituvchilarining ta'lim-tarbiyasida. Yana u G'allaoroldagi “Qaqnus” deb nom olgan to'garakning katta maktabida o'qib va adabiyot ilmidan ham toblanmoqda.

2011-yilda faoliyatini boshlagan “Qaqnus” to'garagining chin adabiyot ustaxonasiga aylangan mashg'ulotlaridan yuzlab yosh qalamkashlar saboq oldi, polapon kabi katta adabiyot olamiga parvoz qildi. To'garak a'zolari nafaqat o'zbek adabiyotining tanqli namoyandalari, shuningdek, Yaponiya, Fransiya, Turkiya, Hindiston, Avstraliya, Bolgariya kabi o'tizga yaqin davlatning mashhur qalamkashlari bilan yuzma-yuz muloqotda ularning ijodiy laboratoriyasi bilan tanishdi, mahorat saboqlarini o'zlashtirdi. Respublikamizning barcha viloyatlaridagi adabiyot shinavandlari “qaqnus”chilarni markaziy shio, televizion, gazeta va jurnallardagi chiqishlari orqali yaqindan taniydi. Bu yil o'n besh yoshini nishonlagan to'garak faoliyatining sara mevalari o'nga yaqin nazmiy va nasriy to'plamlar. Sirasini aytganda, boshqa viloyatlarning yosh qalamkashlari o'zlarida ham shunday to'garak bo'lishni orzu qiladi.

Bizga tasodifan hamroh bo'lib qolgan Ziyoviddinning iqtidorli imkoniyatlarini qarang! Unga o'xshagan o'g'il-qizlar viloyatning qishlog'u shaharlarida yuzlab, minglab topiladi. Axir bu muqaddas an'ana: sha yurtida she'ru shuurga egizak tug'ilgan Ergash Jumanbulbul o'g'li, Hamid Olimjon, Sharof Rashidov, To'ra Sulaymon kabi baxshilar, shoiru ijodkorlar ham bolaligidan ona tuproqqa, bog'u tog'lar, jilg'alaru daryolar, gullar, qushlar va ularni zarir nurlarga ko'mgan quyoshga olana shunday muhabbat, iftixor bilan ulg'aygan. Oqqan daryo oqaveradi. Shoiru Zulfiyaxonim yozganidek, bu bog'lar hali bir bog'lar bo'ladi!

Bir jurnalist hamkasbimizning yozishicha, Dastoboddan taksiga o'tirib Zominga yo'l olgan yo'lovchi xorijiga ketib, u yerda yashab qolgan jizzaxlik kishi ekan. U Laylakuya qishlog'iga yetib kelgunicha yo'lining bir tomonidagi simyog'ochlar ustidagi laylak-uvalardan boshqa hech bir joyni tanimabdi; “Ishqilib, Zominga ketyapmizmi?” deb so'rabdi haydovchiga shubhali qarab. Muloqot asosida mehmonning bundan yigirma ikki yil oldin chetga chiqib ketganini eshitgan haydovchi kulib yuboribdi:

— Aka, siz yigirma yil avvalgi xotiralar bilan yashayotgan ekanisiz. Aslida, viloyatimiz shahar-qishloqlari ikki-uch yilda yangilanib ketyapti-ku! Mana, men haydovchilik qila boshlaganimga olti yil bo'ldi, kasbimni juda yaxshi ko'raman. Bizda cho'l zonalardan to'g'lar tekis yo'llar ham, tog'li hududlarga keskin ko'tariladigan yoki pastlaydigan yo'llar ham ko'p. Dastlab ish boshlagan paytimda asosan markaziy ko'chalar, bosh magistrat yo'llar asfaltlangan edi, hammasiyam sifatlisi edi. Bugun, qarang, tekis, keng yo'llar... ayniqsa, tog'li joylarga yo'lingiz tushsa, kinolardagi kabi ajoyib manzaralar boshlanadi... Oldindan aytib qo'yay: obod mahallalari, zamonaviy maktablari, dam olish maskanlari, bog'lari, mehmonxonalari, archazorlar ustidan o'tgan dor yo'li, aholiga va sayohatchilarga savdo-sotiq, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadigan tizimlari bilan odamlarni o'ziga magnitday tortayotgan Zominni umuman tanimaysiz! Menimcha, boshqa bunaqa joyni topolmaysiz ham!..

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cair: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-00

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy